

EKOLOGIK BARQARORLIK - TARAQQIYOT KAFOLATI

Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li,
Namangan Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchi
E-mail: olimov.islombek92@mail.ru. Tel: 97 560 33 99

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi xususiyatlarini hisobga olgan holda, mamlakatda ekologik barqarorlikni saqlash yo'lidagi chora-tadbirlar haqida so'z boradi. Matnda O'zbekistonning ekologiyani saqlash yo'lidagi strategiyalari va undan so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan tadbirlar, qonunlar, va dasturlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Matnning asosiy qismida O'zbekistonning qurigan tubi, Orol dengizi, va daryo suvlari bilan bog'liq ekologik muammolarga oid ma'lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xizmatidagi qo'mitadan kelib chiqqan qarorlar va farmonlar, o'rmon xo'jaligi, qurg'oqchilikni kamaytirish va ekologiya muammolari yechimlari, qonunlar, va dasturlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: BMT, konvensiya, Orolqum cho'li, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, "yashil iqtisodiyot", o'rmon, ekologiya-gigiyena, sanitariya-epidemiologiya

ENVIRONMENTAL STABILITY IS A GUARANTEE OF DEVELOPMENT

Olimov Islambek Ulugbek ugli,
Namangan State University is an independent researcher
E-mail: olimov.islombek92@mail.ru. Tel: 97 560 33 99

Abstract:

Taking into account the characteristics of the Republic of Uzbekistan, this article talks about measures to maintain ecological stability in the country. The text contains information about Uzbekistan's strategies for environmental protection and the activities, laws, and programs implemented in the country in recent years. In the main part of the text, information on environmental problems related to the dry bottom of Uzbekistan, the Aral Sea, and river waters is presented. It also provides information on decisions and decrees, solutions to forestry, drought reduction and



environmental problems, laws, and programs issued by the committee at the service of the President of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: UN, convention, Orolqum desert, renewable energy sources, "green economy", forest, ecology-hygiene, sanitary-epidemiology

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ – ЗАЛОГ РАЗВИТИЯ

Олимов Исламбек Улугбек ўгли,

Наманганский государственный университет

является самостоятельным исследователем

E-mail: olimov.islombek92@mail.ru. Tel: 97 560 33 99

Аннотация:

Учитывая особенности Республики Узбекистан, в данной статье говорится о мерах по поддержанию экологической стабильности в стране. Текст содержит информацию о стратегиях Узбекистана в области охраны окружающей среды, а также о деятельности, законах и программах, реализованных в стране за последние годы. В основной части текста представлена информация об экологических проблемах, связанных с пересошим дном Узбекистана, Аральским морем и речными водами. Здесь также представлена информация о решениях и постановлениях, решениях проблем лесного хозяйства, борьбы с засухой и окружающей средой, законах и программах, изданных комитетом при Президенте Республики Узбекистан.

Ключевые слова: ООН, конвенция, пустыня Оролқум, возобновляемые источники энергии, «зеленая экономика», лес, эколого-гигиена, санитарно-эпидемиология.

Fan va texnologiya taraqqiyoti yuksak cho'qqiga chiqqan bugungi davrda ko'plab ekotizimlar zaxirasi tugab borayotgan, iqlim o'zgarishi, cho'llanish kabi ekologik muammolar kuchayayotgani ertangi taraqqiyotga jiddiy rahna solmoqda. Shu bois, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatnidan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Mamalakatimizda bugungi kungacha ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda



bo'lish borasida amalga oshirilayotgan isloxotlarning yangi bosqichida bunday global ekologik muammolarni oldini olish, barqaror rivojlanishga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda ushbu soxaga oid juda ham ko'plab qonun va meyoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Milliy manfaatlardan kelib chiqib, umumbashariy muammolarga kompleks yondashish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi¹. Qolaversa, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi, "Gidrometrologiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar, 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi shular jumlasidandir².

Prezidentimiz tomonidan ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'nalishda ilgari surilayotgan aniq taklif va tashabbuslar nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik Trast fondining tashkil etilishi, Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolutsiyaning qabul qilinishi shular jumlasidandir³.

Dunyoning eng katta yopiq dengizlaridan biri bo'lgan Orol dengizi mintaqasida bugunga kelib Markaziy Osiyo aholisining 80 foizdan ortig'i isitqomat qiladi. 1960 yillardan boshlab Orolni suv bilan ta'minlovchi daryolardan haddan tashqari foydalanish natijasida dengiz sathi keskin pasayib ketdi. Buning natijasida Orol va unga yondosh bo'lgan hududlarda ekologik muhit buzildi. Orol dengizining qurishi oqibatida paydo bo'lgan cho'l Orolbo'yi hududini qamrab olib, ekologik xavf doimiy tus olib, mavjud hudud va mahalliy aholining turmush sifati va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eng yomoni, bu yerda istiqomat

Hozirgi kunga kelib, Orolbo'yi xududida maxsus rezolutsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha jami 2 trillion 120 milliard so'mdan ortiq, 22 million AQSh dollari va 6 million yevro qiymatidagi mablag' sarflanishi mo'ljallangan 71

¹ Янги Ўзбекистон – Тошкент, 2022, 4 авг.

² Янги Ўзбекистон – Тошкент, 2022, 6 дек.

³ <https://lex.uz/docs/-5538638>



banddan iborat chora-tadbirlar hamda 65 ta ustuvor innovatsion loyihalar amalga oshirib kelinmoqda⁴. Xususan, so'nggi 30 yilda Orolning qurigan tubida qariyb 400 ming gektarda o'rmonzor tashkil etilgan bo'lsa, 2018 yilning dekabr oylaridan ayni vaqtga qadar 1,7 million gektardan ziyod maydonga saksovul, cherkas kabi sho'r va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik urug'lari ekildi⁵.

Keyingi yillarda bu borada bir qator loyihalar amalga oshirildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamalakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida keyingi besh yilda daraxt va buta ko'chatlarining ekilishi ham global muammolarga, iqlim o'zgarishlariga milliy yechim bo'ladi. Aytish joizki, hudud tanlamasi, chegara bilmas ekologik muammolarni bir mamlakat yoki mintaqa miqyosida hal etish mushkul. Bunday global masalalarga yechim topishda xalqaro hamkorliklarning o'rnini beqiyos. Shu bois, davlatimiz rahbari jahonning nufuzli minbarlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda va ushbu konstruktiv takliflar xalqaro jamoatchilik tomonidan alohida e'tirof etilyapti.

Davlatimiz rahbari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Jahon turizm tashkiloti Bosh assambeliyasi 25-sessiyasidagi nutqida turizm sohasini yanada rivojlantirish, bu borada hamkorlikni har tomonlama chuqurlashtirish borasidagi takliflar qatorida iqlim o'zgarishi tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro harakatlar dasturini qabul qilish, Global "yashil" turizm startaplari laboratoriyasini yaratish taklifini ilgari surgani muhim yangilik bo'ldi⁶.

Prezidentimiz, shuningdek Pekinda bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumidagi nutqida ham iqlim o'zgarishiga to'xtalib, O'zbekiston va Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o'zgarishi oqibatlaridan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri ekanini takidlad⁷. Hozirgi vaqtda mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari yerlar shiddat bilan degregatsiyaga uchrashi va cho'llanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi ko'rinishida namoyon bo'layotgan jiddiy tahdidlarga duch kelayotgani qayd etib o'tis lozim.

⁴ Yormatova D., Xushvaqtova X. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: 2018. B. 105

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6234206>

⁶ Янги Ўзбекистон – Тошкент, 2023, 25 окт.

⁷ <http://press.natlib.uz/download.php?id=90721>



Xulosa o‘rnida davlatimiz rahbarining 2021 yilda Janubiy Koreyada bo‘lib o‘tgan “Yashil o‘sh va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030” ikkinchi xalqaro sammitida so‘zlagan nutqidagi quyidagi iqtibosni keltirish mumkin: “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Bugun “yashil taraqqiyot” borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q...”.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., 2017. – B. 49.
2. “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 30 oktyabr 2019 yil PF-5863 sonli Farmoni.
3. Давлетов С. Мустақил Ўзбекистонда экологик сиёсат. // Қорақалпоғистон тарихининг замонавий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Нукус, 2007 – Б. 181
4. Yormatova D., Xushvaqtova X. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: 2018. B. 105
5. Янги Ўзбекистон – Тошкент, 2022, 4 авг.
6. Янги Ўзбекистон – Тошкент, 2022, 6 дек.
7. Янги Ўзбекистон – Тошкент, 2023, 25 окт.
8. <https://lex.uz/docs/-5538638>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-6234206>
10. <http://press.natlib.uz/download.php?id=90721>.